

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
Kollegial organlar nizomlarini
ro'yhatga olish kitobida
2023 yil 24 mart da
22 -son bilan
RO'YXATGA OLINGAN



"O'zsanoatqurilishbank" ATB
boshqaruvinin
2023 yil 24 mart
sonli qaroriga
- ILOVA

"O'zsanoatqurilishbank" ATBning Odob-axloq komissiyasi to'g'risida"gi Nizom
(yangi tahrirda)

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom "O'zsanoatqurilishbank" ATBda Odob-axloq komissiyasi (keyingi o'rinlarda - komissiya) faoliyatini tartibga soladi.

2. Komissiya "O'zsanoatqurilishbank" ATB (keyingi o'rinlarda - Bank) xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etishini nazorat qilish, ularning axloq normalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarini oldini olish va odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya oid huquqbuzarliklar holatlarni va nizolarni ko'rib chiqish maqsadida tuziladi.

3. Komissiya faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror va Farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlariga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Komissiya tarkibi - komissiya raisi, kotibi va a'zolaridan iborat bo'lib, umumiy soni **5 nafardan kam bo'lmasligi** va toq sonda bo'lishi lozim.

Komissiya a'zolariga tajribali, mehnat jamoasida obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan Bank xodimlari kiritiladi.

Komissiya tarkibi ilovaga muvofiq tarkibda Bank boshqaruvi Raisining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va doimiy ravishda faoliyat yuritadi.

Komissiya tarkibiga komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi ehtimolini nazarda tutgan holda o'zgartirish kiritiladi.

II. KOMISSIYANING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

5. Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Bank xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi masalalarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

ichki mehnat tartibi qoidalarini buzilishi masalasini ko'rib chiqish;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va bartaraf etish masalalarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

Bank xodimlarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;

Bank xodimlarining odob-axloq qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflarini ko'rib

chiqish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik masalalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan Bank xodimlarini rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish.

6. Komissiya o'z vakolatlari doirasida:

Bank xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Bank xodimlarining odob-axloq qoidalar va (yoki) korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari bilan bog'liq masalalarini ko'rib chiqish jarayonida zarur axborotni so'rab oladi;

ko'rib chiqish uchun kiritilgan masalalarni hal etish uchun komissiya majlislariga ekspertlar va mutaxassislarni jalb qiladi;

odob-axloq qoidalariga oid masalalar yuzasidan Bank xodimlariga tegishli maslahat va tushuntirishlar beradi.

7. Komissiya Bank tarkibiy bo'linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslari va jamoatchilik bilan hamkorlik qilishi mumkin.

III. KOMISSIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

8. Komissiya majlislari zaruriyatga qarab, ochiq tarzda o'tkaziladi. Zarur bo'lgan hollarda komissiya yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

9. Komissiya majlisini komissiya raisi, komissiya raisi yo'qligida esa uning topshirig'iga binoan komissiya a'zolaridan biri tomonidan olib boriladi. Komissiya majlisida kotib tomonidan bayonnoma yuritiladi va raislik qiluvchi hamda komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi.

10. Komissiya majlislari, agar unda komissiya a'zolari umumiy sonining kamida 5/3 a'zosi bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

11. Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashgan komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi. Komissiyaning qarorlari komissiya raisi tomonidan imzolanadi.

12. Komissiya raisi:

komissiya ishini tashkil etadi;

komissiya majlislarini chaqiradi va o'tkazadi;

komissiya a'zolariga topshiriqlar beradi;

komissiya majlislarida komissiya faoliyati to'g'risidagi axborot bilan so'zga chiqadi.

13. Komissiya kotibi:

komissiya kotiblari 2ta muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari (Xodimlarni boshqarish va Komplaens-nazorat departamentlari) dan ovoz berish huquqisiz tayinlanadi.

Bunda:

Xodimlarni boshqarish departamenti tomonidan tayinlangan kotib bank xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to'qnashuvi va ichki mehnat tartib qoidalar bilan bog'liq holatlar va nizolar yuzidan o'tkaziladigan komissiya yig'ilishlarida kotiblik qiladi;

Komplaens-nazorat departamenti tomonidan tayinlangan kotib bank xodimlari tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari buzilishi bilan bog'liq holatlar yuzidan

o'tkaziladigan komissiya yigilishida kotiblik qiladi;

komissiyaning faoliyatini tashkiliy - texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

komissiyaning navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Bank xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq komissiya majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

komissiyaning navbatdagi majlisi to'g'risida komissiya a'zolarini, shuningdek boshqa ishtirokchilarni oldindan yozma ravishda, qoida tariqasida **kamida 3 kun oldin xabardor qiladi**;

komissiya a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni komissiya majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar haqida xabardor qiladi;

komissiya majlisining bayonnomasi (qarori)ni rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnoma (qaror)ni manfaatdor shaxslarga jo'natilishini, shuningdek ushbu hujjatlarni belgilangan muddatlarda saqlanishini va Bank arhiviga topshirilishini ta'minlaydi.

14. Komissiya a'zosi:

komissiya tomonidan ko'rib chiqiladigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berishga;

komissiyaning ko'rib chiqishi uchun masalalar va takliflar kiritishga;

qarorlar tayyorlanishida, muhokamasida, qabul qilinishida, shuningdek, ularning amalga oshirilishini tashkil etishda hamda bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga;

ko'rib chiqilayotgan masalaga doir hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqa zarur axborot bilan tanishishga;

komissiya qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda o'z e'tirozini yozma bayon etishga haqli.

15. Komissiya a'zosi komissiya majlisida hozir bo'lishi va o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shart. Komissiya a'zosi komissiya majlisida hozir bo'lish imkoni bo'lmaganda komissiya raisini oldindan xabardor etishi lozim.

16. Komissiya majlisida ko'rilayotgan masalalar komissiya raisi, kotibi va a'zolariga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan taqdirda o'zini o'zi rad qilishi shart.

IV. BANK XODIMLARI TOMONIDAN ODOB-AXLOQ QOIDALARI BUZILISHINING OLDINI OLIISH (PROFILAKTIKA) CHORALARINI KO'RISH

17. Komissiya Xodimlarni boshqarish departamenti va Komplaens-nazorat departamenti bilan birgalikda muntazam ravishda Bank xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va ularning buzilishini oldini olishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi profilaktik kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

Bank xodimlarida yuksak kasbiy madaniyatni, jamoada sog'lom ma'naviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantirish;

Bank xodimlariga halollikni ularning ongiga singdirish, ma'rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish kayfiyatini shakllantirish;

Bankda taniqli ziyolilar, ijodkorlar, ma'naviyat va ma'rifat sohasining ko'zga ko'ringan namoyondalari, o'z sohasida yuksak natijalarga erishgan mehnat faxriylarini jalb qilgan holda, uchrashuvlar tashkil qilib borish;

Bank xodimlarining kasbiy va boshqaruv ko'nikmalari o'sishini, shuningdek, ularning malakasini doimiy ravishda oshirishni, ular tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etishlarini ta'minlash maqsadida ularning bilimlari va malakasini doimiy takomillashtirish ishlarini ta'minlash;

18. Komissiya bank xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) borasidagi o'z faoliyatini komissiya tomonidan tasdiqlanadigan choraklik ish rejalari asosida olib boradi.

19. Bank xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralari komissiya tomonidan davlat organi va tashkilotining tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari hamda kasaba uyushmalari qo'mitalari bilan birgalikda tashkil etishi mumkin.

V. YAKUNIY QOIDALAR

20. Komissiya qaroriga asosan xodimga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rilishi mumkin.

21. Mazkur Nizom Bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangandan so'ng kuchga qiradi hamda Bank Boshqaruvining 2022 yil 10 maydagi 56/7-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning Odob-axloq komissiyasi to'g'risida"gi Nizom o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning
Odob-ahloq komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizomga
Ilova

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB Odob-axloq komissiyasining tarkibi

1.	Boshqaruv Raisi	komissiya raisi
2.	Xodimlarni boshqarish departamenti direktori	komissiya raisi o‘rinbosari
3.	Komplaens-nazorat departamenti direktori	komissiya a‘zosi
4.	Yuridik departament direktori	komissiya a‘zosi
5.	Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti direktori	komissiya a‘zosi

1. Komissiya kotibi:

Xodimlarni boshqarish departamenti

***** mutaxassisi

*, **

(ovoz berish huquqisiz)

2. Komissiya kotibi:

Komplaens-nazorat departamenti

Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus

boshqarmasi bosh mutaxassisi

(ovoz berish huquqisiz)

Izoh: Komissiya raisi, o‘rinbosari va a‘zolari ishda bo‘lmagan (mehnat ta‘tili, xizmat safari va b.) vaqtda ularning o‘rinbosarlari yoki vaqtincha vazifasini bajaruvchi xodimlar yig‘ilishda ovoz berish huquqi bilan qatnashadi va bayonnomani imzolaydi.

Komissiya raisi, o‘rinbosari va a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangidan tayinlangan shaxslar komissiya tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.